

UO‘K (UDK, UDK): 811.22.1: 81.2-5-98

FORS TILI AMALIY TARJIMA DARSLARIDA GAZETA MATNLARI TARJIMASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14262132>

Axmedova Dilfuza Rafukjanovna

f.f.d., dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi

Toshkent, O‘zbekiston

dilakhmedova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqola fors tili amaliy darslari hamda gazeta matnlari tarjimalari tahliliga bag‘ishlangan. Unda eron gazeta matnlarining asosiy qismini tashkil qiluvchi neologizm, abbreviatura, o‘zlashma kabi grammatik kategoriyalarning qo‘llanish va tarjima xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek talablarga gazeta matnlari tarjimasiga o‘qitishda ba’zi tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *amaliy tarjima, funksional uslub, publitistik uslub, gazeta tili, nutq stereotiplari, abbreviature, neologism, o‘zlashma, metaforik modellar.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу практических уроков персидского языка и учению перевода газетных текстов. В нем освещены ряд грамматические явления как неологизмы, аббревиатуры, заимствования, которые составляют главную часть газеты персидского языка. Также приводятся некоторые рекомендации по учению студентов перевода газетных текстов

Ключевые слова: *практический перевод, функциональные стили, публицистический стиль, язык газеты, речевые стереотипы, аббревиация, метафорические модели, неологизмы, заимствования.*

TRANSLATION OF NEWSPAPER TEXTS IN THE PERSIAN LANGUAGE PRACTICAL TRANSLATION LESSONS

ABSTRACT

Theoretical significance of the work consists in the linguistic description of lexical and grammatical features of the Iranian press, with emphasis on pragmatics, in the study of the interaction of the functional styles in the newspaper texts of

different genres, in an attempt to make a contribution to the style of genre. In particular linguistic material is carried out linguistic research of some phenomena that we come across in the practical use of our knowledge.

Key words: *practice translate, newspaper language, newspaper-publicity style, functional style, abbreviation, neologisms.*

Mamlakatimizning bugungi kunda xalqaro maydondagi mavqeining tobora oshib borishi, uning xorijda erkin va farovon hayoti ta'minlangan alohida mustaqil diyor sifatida tan olinishi hamda davlatimizning qo'shni va olis masofadagi mamlakatlar bilan do'stona, teng xuquqli ham siyosiy ham iqtisodiy, ilmiy madaniy aloqalarning mustaxkamlanishi borasida xorijiy tillarni o'rganish va ayniqsa, uni yosh avlodga o'rgatib borish bugungi kunning eng dolzarb va aktual masalalardan hisoblanishi shubhasizdir. Qadimiy sharq mamlakatlari xalqlari bilan bizning o'zbek xalqi o'rtasidagi munosabatlarning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ta'kidlash joizki, o'zbek, fors, arab va xind xalqlarining tarixi bir biri bilan chambarchas bog'liqdir va ular tarixda ko'p bor bir davlat xududida birlashib bir birining etnik komponentini yanada boyitib, shakllantirib kelganlar. Bu borada ham sharq xalqlari tillarini chuqur ilmiy o'rganish bugungi kun talabidir. Hozirda mamlakatimizda xorijiy g'arb va sharq tillarini o'rganish eng ustuvor masalalardan bo'lib kelmoqda. Bu ishda Prezidentimizning xayrihoh bo'lib, bosh qosh bo'lishlari keng jamoatchiligimiz o'rtasida katta quvonch uyg'otdi albatta.

Til o'qitish jarayonida tarjima ko'nikmalarini shakllantirish uchun amaliy tarjima darslarining o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, amaliy tarjima darslari badiiy adabiyot tarjimasi, film tarjimasi kabi jarayonlarda o'z aksini topadi. Shular bilan bir qatorda gazeta matnlari tarjimasi ham talabalarda tarjima ko'nikmasini xosil qiluvchi asosiy omillardan bir desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tarjima jarayonida matn qaysi funksional uslubga mansubligini e'tiborga olgan holda o'ziga mos ma'lum til birliklari tanlanishi katta ahamiyatga ega. Har bir funksional uslub doirasida tarjima jarayoni va uning natijasiga ta'sir etuvchi tilga oid o'ziga xos xususiyatlarni ajratish mumkin.

Gazeta tili tarjima jarayoniga ta'sir etuvchi o'ziga xos xususitga ega. Undagi materiallarning asosiy vazifasi ma'um ma'lumotlar yetkazish orqali o'quvchiga ta'sir o'tkazishdan iborat. Gazeta matnlarining mazmuni aholining barcha qatlamlariga tushunarli bo'lishi bilan ajralib turadi.

Talabalar gazeta matnlarini tarjima qilishlari uchun avvalambor ular mamlakatimiz va jahonda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardan ogoh bo'lishlari lozim. Shu bilan birga fors tilidan o'zbek tiliga gazeta matnlarini tarjima qildirishdan avval talabalardan o'zbek tilidagi gazeta matnlarini

o'qish, ulardagi siyosiy-iqtisodiy terminlar ma'nosini tushunishlari kerakligi talab etiladi.

Har bir darsni m'lum gazeta tili xususiyatgiga bag'ishlab, u haqda ma'lumot berib o'tilsa, vaqt o'tishi bilan talabalarda eron gazeta matnlari tilining o'ziga xos xususiyatlari, ulardagi aktiv leksika borasida tushuncha xosil bo'lib boradi.

Gazeta matnlarida atqli otlardan keng foydalanish ma'lumotning konkretlashuviga va berilayotgan ma'lumot ma'lum shaxs, joy va h.larga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Lekin bu ma'lumotlar tarjimasini berishda tarjimondan ushbu ob'yekt yoki sub'yektlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerakligiga undaydi.

Masalan eronlik o'quvchiga tajrish so'zi ma'lum bo'lishi mumkin, lekin uni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uning "tajrish maydoni" ekanligi ta'kidlab o'tilishi zarur. Yoki muharram oyi haqida gap ketganda fors tilida oyning nomigini keltiriladi, lekin uni o'zbek tiliga tarjimasida muharram oyi deb aniq berish zarur. Demak ma'lum faktlar haqida ma'lumot berishda tushuncha yoki hodisalarni aniq ko'rsatish lozim. Bunda o'qituvchidan ham shu ma'lumotlarga ega bo'lishi, ularni talabalarga tanishtira olish imkoni mavjud bo'lishi talab etiladi.

Gazeta matnlarida ko'p ma'noli so'zlar uchraydi. Gazeta matnlarining tarjimasida ko'p ma'noli so'zlarning ushbu uslubga xos ma'nosini berishga ahamiyat qaratish lozim. Masalan: sarzamin so'zi siyosiy terminologiyada ham "mamlakat" ham "territoriya" ma'nolarini anglatadi.

سرزمین ما تا قبل از پیروزی انقلاب اسلامی، استقلال نداشت
g'alabasigacha mamlakatimiz mustaqillikka ega emas edi

سرزمین ایران

به قسمت های مختلف تقسیم شده است

Eron territoriyasi turli qismlarga bo'lingan

Gazeta matnlari orqali beriluvchi xabar o'zining ixchamligi bilan ajralib turadi. Bunda abbreviatsiyaning o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda abbreviaturalar soni kundan kunga oshib bormoqda. Ular barcha funksional uslublarda qo'llaniladi, lekin gazeta publisistikasida ularning o'zni alohida ahamiyatga ega. Abbreviaturalar orqali turli xalqaro, mintaqaviy, siyosiy va ijtimoiy tashkilotlar, o'quv muassasalari, turli birlashmalar, tijorat va sanoat kompaniyalari, transport, sport va turistik tashkilotlarning abbreviatura ko'rinishidagi nomlarini ko'plab uchratish mumkin. Bu qisqartmalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda qisqartmadan so'ng uning o'zbekcha izohini berish shart. Masalan: برنامه جامه - برجام
اقدام مشترك (harakatlar qo'shma komplek rejasi).

Eron gazetalarida forscha qisqartmalar bilan bir qatorda ingliz tilidagi qisqartmalar ham ko'p uchraydi. Ingliz tilidagi qisqartmalar arab alifbosi bilan bir

qatorda lotin alifbosi orqali ham ifodalanish holatlari mavjud. Bu qisqartmalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida uning inglizcha shakli saqlanib qoladi: GPS, LED, IRIB, e-mail, AQI (Air Quality Index) ایرنا - IRNA, ناسا - NASA, ASEAN – آن آسه, ECO – اکو va h.

Forscha gazetalarning o'ziga xos yana bir jihati unda siyosiy arboblarning nutqlari berilishida har bir jumladan oldin [goft] «aytdi», [ešāre kard] «ishora qildi», [e'lām kard] «e'lon qildi», [ezhār-e alāqe kard] «qiziqish bildirdi», [afzud] «qo'shimcha qildi», [ta'kid varzid/kard] «ta'kidladi», [yādāvari kard] «eslatib o'tdi» kabi fe'llarning ishlatilishi sermahsul. Lekin o'zbek tiliga har bir jumladan oldin berilgan fe'l tarjima qilinish shart emas.

Fors tili amaliy tarjima darslari jarayonida gazeta matnlari tarjimasiga alohida ahamiyat qaratilish lozim. Buning uchun avvalambor o'qituvchi fors tili gazeta matnlari tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanish bo'lishi, shu xususiyatlar bilan talabalarni bosqichma bosqich tanishtirib borishi maqsadga muvofiq. Gazeta matnlari tarjimasida talabalar tomonidan terminlar, ko'p ma'noli so'zlar, qisqartmalar, neologizmlar, uslubiy moslashuv, tarjima transformatsiyalarini to'g'ri tanlash va ulardan unumli foydalana olish ko'nikmasini xosil qilish tarjimaning aniq, tushunarli va sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Ko'p hollarda ikki tilga xos bir xil uslubning lingvistik xususiyatlari bir biriga mos kelmaydi. Shunday hollarda tarjimondan alohida mahorat talab etiladi. Tarjima qilinayotgan matn funksional uslubining lingvistik xususiyati aniqab olinishi tarjima jarayonida ushbu uslubga xos ekvivalentlarni tanlashga, tarjimaning asl matn uslubi bilan hamohang tarzda amalga oshishiga yordam beradi. Matn tarjimasi jarayonida uslubiy moslashuv katta ahamiyat kasb etadi. Tarjimonlar tarjima qilinayotgan tilga mos kelmagan asl matndagi emotsional-uslubiy elementlarni tushirib qoldirish orqali tarjima qilinayotgan matnning uslubiy moslashuvini amalga oshirib boradilar. Yuqorida sanab o'tilgan jihatlarga ahamiya qaratilsa, talabalarni gazeta matnlarini qiyinchiliksiz tarjima qila olishlarini ta'minlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Бобоева А. Газета тили ҳақида. – Тошкент: Фан, 1983. – 55 б.
2. Абдусайдов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.докт...дис.автореферати. – Тошкент, 2005. - 48 б.
3. Солганик Г.Я. О языке и стиле газеты // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования: Уч. пос. / Отв. ред. М.Н. Володина. — М.: Изд-во МГУ, 2003. С. 261-268.

4. Гладкова Е.Л. Некоторые аспекты общественно-политической лексики современного персидского языка (на материале выступлений М.Ахмадинежада в ООН).